

2023- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

48 194,5

YAHM o'sish
sur'ati

103,4 %

YAHM deflyator
indeksi

108,6 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyunida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 48 194,5mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 3,4 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-iyunidagi narxlariga nisbatan 8,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 10,3 % ga yetdi.



2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	42 935,5	48 194,5	103,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	41 200,4	46 396,9	103,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 735,1	1 797,6	103,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	41 200,4	46 396,9	103,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 014,3	8 894,1	103,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22 699,7	25 094,4	103,7
sanoat	20 376,3	22 270,4	103,2
qurilish	2 323,4	2 824,0	108,1
xizmatlar	10 486,4	12 408,4	102,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 601,5	3 087,8	104,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 957,7	2 303,9	102,7
boshqa xizmat tarmoqlari	5 927,2	7 016,7	101,9



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 029,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 % ga yuqoridir.

2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



**2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,0	96,3
mahsulotlarga sof soliqlar	4,0	3,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19,5	19,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	55,1	54,1
sanoat	49,5	48,0
qurilish	5,6	6,1
xizmatlar	25,4	26,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,3	6,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,8	5,0
boshqa xizmat tarmoqlari	14,3	15,0

2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 19,5%

Sanoat 49,5%

Qurilish 5,6%

Xizmatlar 25,4%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 19,2%

Sanoat 48,0%

Qurilish 6,1%

Xizmatlar 26,7%

- Yalpi qo'shilgan qiymat
- Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 19,2 % ni, sanoat tarmog'i 48,0 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 26,7,0 % ni tashkil qildi.




2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



3,4

Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi




0,6

Sanoat



1,6

Qurilish



0,4

Xizmatlar



0,7

Mahsulotlarga
sof soliqlar





0,1

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 3,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.) va xizmatlar sohasi – 0,7 f.p. (2022-yilning yanvar-iyunida – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2022- yilning yanvar-iyunida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.



2022-2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




2023- yilning yanvar-iyunida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,3% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 19,2%), sanoatda – 103,2% (48,0%), qurilishda – 108,1% (6,1%), xizmatlar sohasida – 102,7% ni (26,7%) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 104,7% (6,7%), tashish va saqlash, axborot va aloqa 102,7% (5,0%), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,9% dan (15,0%) iborat bo'ldi.





2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi




Sanoat




2023- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 115,2 % va qurilishda – 112,5 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar



2022-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

	Hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	Ulushi, <i>% da</i>
2022- yil	18 398,7	44,7
2023- yil	22 143,3	47,7

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 22 143,3 mlrd. so'mni tashkil etib (2022-yilning yanvar-iyun oylarida – 18 398,7 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 47,7 % ni tashkil qildi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 44,7 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

